

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2024-yil 24 may dagi
110 - son buyrug'iga
Ilova

Tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish uslubiy qo'llanmasi

Tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish uslubiy qo'llanmasida (keyingi o'rinlarda – Uslubiy qo'llanma) O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligiga va BMT Statistika bo'limi tomonidan tayyorlangan ikkinchi qayta ko'rib chiqilgan “Xalqaro tovarlar savdo statistikasi: konsepsiya va ta'riflar” (XTSS–2010)ga asoslangan, tovarlar tashqi savdosi statistik ma'lumotlari asosiy qoidalarining shakllanishi keltirilgan.

To'lov balansi Uslubiy qo'llanmasiga mos ravishda tovarlar tashqi savdosi hisobini yanada to'liq aks ettirilishi maqsadida tashqi savdo statistikasi ma'lumotlarini yig'ish Davlat statistika qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi va Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Davlat va bojxona tashqi savdo statistikasi ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash uslubiy qo'llanmasi to'g'risidagi Nizom” (AV 2007-yil 20-sentyabr №1717) asosida amalga oshiriladi.

Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda–GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy qo'llanma GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Ushbu Uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanildi:

tovar – har qanday ko'char mulk, shu jumladan valyuta va qiymatlari, elektr, issiqlik va boshqa turdagi energiya vositalari, transport vositalari (yo'lovchilar va tovarlar tashuvchi transport vositalari, konteyner va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mulk obyektlari;

rezidentlar – O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar, diplomatik imtiyozlardan foydalanadigan O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari, shuningdek, iqtisodiy yoki boshqa tijorat faoliyatini amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining chet eldagi tashkilotlari vakolatxonalari;

bojxona tuzumi – O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan, bojxona maqsadlari uchun tovarlar va transport vositalari belgisini aniqlaydigan qoidalar to‘plami;

tovarlar eksporti – O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tovarlarni qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa;

tovarlar importi – O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga tovarlarni olib kirish, ularni qayta olib chiqish majburiyatisiz;

tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori;

tovarlar kelib chiqqan mamlakat – mahsulot to‘liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlangan mamlakat (tovarlarning yetarli darajada qayta ishlash mezonlari “Bojxona tarifi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 26 moddasiga muvofiq belgilanadi);

tovarlar yuboriladigan mamlakat – tovarlarni yetkazib beriladigan so‘nggi mamlakati sifatida jo‘natiladigan paytda ma‘lum bo‘lgan mamlakat;

tovarlarning statistik qiymati – shartnoma valyutasiga qaramasdan, bazis narxiga keltirilgan kontraktidagi tovarlar qiymati;

SIF (xarajat, sug‘urta, yuk) – tovarlarning sotilish narxiga, uning narxini va sug‘urta qilish, shuningdek, tovarni import qiluvchi mamlakat portiga yetkazib berish xarajatlarini qo‘shish sharti asosida tovarlarni sotish;

SIP (kemada tashish/tashish va sug‘urta) – tovarlarning sotilish narxiga, uning narxini va sug‘urta qilish, shuningdek, tovarni import qiluvchi mamlakat chegarasida belgilangan manziliga yetkazib berish xarajatlarini qo‘shish sharti asosida tovarlarni sotish;

FOB (kemada bepul) – tovarlarning sotilish narxiga, uning narxini va tovarni kema bortiga yetkazib berish va yuklash xarajatlarini qo‘shish sharti asosida tovarlarni sotish;

DAF (chegaraga yetkazib berish) – tovarlarning sotilish narxiga, uning narxini va tovarni eksport qiluvchi mamlakat chegarasida belgilangan manziliga yoki qo‘shni mamlakat chegarasiga yetkazib berish xarajatlarini qo‘shish sharti asosida tovarlarni sotish.

3. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi mamlakatning statistik hududining statistik chegarasi hisoblanadi.

4. Tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki vaqtincha undan olib chiqilgan tovarlar (bir yildan ortiq muddatga ijaraga olingan va

ichki yoki tashqi qayta ishlash uchun mo'ljallangan tovarlar bundan mustasno), chunki ular mamlakat material resurslari zaxiralarini to'ldirmaydi va kamaytirmaydi.

5. O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlar quyidagilar:

olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat;

olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat.

6. Tovarlarning statistik qiymati quyidagilarda aniqlanadi:

- importda – AQSH dollarida, tovarlarning kontrakt qiymatida;

- eksportda – AQSH dollarida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi asosida yagona bazisga keltirilgan tovarlarning bojxona qiymatida.

Import qiymatini baholash import qiluvchi mamlakat porti SIF yoki SIP import qiluvchi mamlakat chegarasidagi tovarlar yuboriladigan belgilangan joy narxlari asosida amalga oshiriladi.

Tovarlarni olib chiqish boshqa transport vositalari asosida va SIF shartlari qo'llash mumkin bo'lmagan hollarda amalga oshirilsa, tovarlar qiymatini SIP shartlari asosida aniqlash mumkin, chunki u tovarlarni import qiluvchi mamlakat chegarasiga yetkazib berish, yuklash va sug'urta qiymatlarini qo'shgan holda aks ettiradi.

Eksport qiymatini baholash eksport qiluvchi mamlakat – FOB yoki DAF eksport qiluvchi mamlakat chegarasi narxlari asosida amalga oshiriladi.

Eksport qiluvchi mamlakatdan tovarlarni boshqa transport vositalari asosida yuborilsa va FOB shartlari qo'llash mumkin bo'lmagan hollarda, uning o'rniga DAF shartlari qo'llanilishi mumkin, chunki u tovarlarni FOBga mos ravishda eksport qiluvchi mamlakat chegarasiga yetkazib berish qiymatini aks ettiradi.

CIF, CIP, FOB va DAF tushunchalari Savdo atamalarini talqin qilishning xalqaro qoidolari (Inkoterms) bilan belgilanadi.

7. Tovarlarni tashqi savdosida tovarlarni kodlash va tasniflash uchun Tovarlarni tavsiflash va kodlashning uyg'unlashtirilgan tizimi asosida ishlab chiqilgan, O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) tasniflagichidan foydalaniladi.

8. O'zbekiston Respublikasi TIF TNsi o'n raqamli kodi quyidagicha shakllangan:

- birinchi oltita raqam tovarlarni tavsiflash va kodlashning uyg'un sistemasiga (HS) to'liq mos keladi;

- xuddi o'sha oltita raqam unga qo'shimcha yettinchi va sakkizinchi raqamlar tovarlarni ta'riflash va kodlash Yevropa uyushmasining kombinatsiyalashgan nomenklaturasiga mos keladi;

- to'qqizinchi raqam MDH (MDH TIF TN)ga tovarlar haqida to'liq ma'lumot berishga mo'ljallangan;

- o'ninchi raqam O'zbekiston Respublikasi uchun tovarlar haqida to'liq ma'lumot berishga mo'ljallangan.

9. O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, TIF TN bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

10. Tovarlarning miqdoriy hisob kitobi asosiy o'lchov birligi bo'lgan kilogrammni qo'llagan holda netto og'irligida olib boriladi.

Statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash zarur bo'lganda, tovarlarning miqdoriy hisobi parallel ravishda qo'shimcha o'lchov birliklarida (dona, juft, metr, litr va boshqalar) olib boriladi. Bu o'lchov birliklari TIF TN "Qo'shimcha o'lchov birliklari" mos ustunida ko'rsatiladi.

II bob. Tashqi savdo statistikasi shakllanishi manbalari

11. Bojxona qo'mitasining bojxona statistikasi ma'lumotlari va statistika hisobotlari ma'lumotlari tovarlar tashqi savdosi statistikasi shakllanishining dastlabki ma'lumotlari bo'lib hisoblanadi.

12. Tovarlarni tashqi savdosi statistik ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va ular bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish, bojxona deklaratsiyalari asosida Bojxona qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona qo'mitasi hisobot davridan keyingi har oyning 7-sanasigacha tezkor, har yili, hisobot yilidan keyingi yilning 15-yanvarigacha esa O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo bojxona statistikasining me'yoriy hujjatlarini hisobga olgan holda, tovarlar tashqi savdosi ma'lumotlari bazasi bo'yicha aniqlashtirilgan ma'lumotlarni (Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasining 10 ta belgisi bo'yicha) jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni ajratgan holda Statistika agentligiga taqdim etadi.

Taqdim etilayotgan ma'lumotlar o'sib borish tartibida shakllantiriladi.

13. Statistika agentligi Bojxona qo'mitasidan mamlakatning to'lov balansini shakllantirish uchun zarur bo'lgan bojxona deklaratsiyalarining keyingi alohida pozitsiyalari bo'yicha ma'lumotlar oladi:

- a) hisobot davri (hisobga olish vaqti);
- b) tovar oqimining yo'nalishi (olib kirish yoki olib chiqish);
- d) kelib chiqqan mamlakat;
- e) yuboriladigan mamlakat;
- f) statistik qiymati;
- g) TIF TN bo'yicha tovarning kodi va nomi;
- h) netto og'irligi;
- i) qo'shimcha o'lchov birliklarining kodi va nomi;
- j) qo'shimcha o'lchov birliklari bo'yicha soni;
- k) kelishuv xarakteri;

1) hudud.

14. Alohida tovarlar haqidagi ma'lumotlar, rezidentdan norezidentga o'tgan egalik qilish huquqi, mamlakat chegarasini kesib o'tmaydigan, bojxona deklaratsiyalarida va bojxona statistikasi tomonidan hisobga olinmaydigan ma'lumotlar statistika oylik hisoboti asosida hisobga olinadi.

Bu kategoriyaga bunkerlar (yoqilg'i), bort ta'minot materiallari, ballast va mahkamlash materiallari, shuningdek, moslamalari kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududida xorijiy uchar apparatlari tomonidan sotib olingan;

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududidan tashqarida milliy uchar apparatlari tomonidan sotib olingan;

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududidan tashqarida milliy uchar apparatlari tomonidan xorijiy uchar apparatlariga taqdim etilgan yoki milliy uchar apparatlari tomonidan chet el aeroportlarida yuklangan bo'lsa.

Bu tovarlar tovarlar savdosi statistikasida ham, to'lov balansida ham tovar bitimlari sifatida hisobga olinadi.

III bob. Yakuniy qoidalar

15. Tashqi savdo bo'yicha yig'ma natijalar mamlakat miqiyosida har oyda amalga oshiriladi, bunda tovarlar eksport–importi ma'lumotlari xizmatlar eksport–importi ma'lumotlari bilan birlashtiriladi, keyinchalik hisob–kitob natijalari hududlarga yuboriladi.

16. Hududiy va idoraviy tashqi savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Statistika agentligi, qoida tariqasida, xo'jalik yurituvchi subyektlarga mos keladigan hududiy va idoraviy mansublik belgilaridan foydalanadi. O'z o'rnida, hududiy mansublik belgisi xo'jalik yurituvchi subyekti joylashgan (davlat ro'yxatidan o'tgan) manzil bilan belgilanadi.

17. Tabiiy gaz va elektr energiyasini yetkazib berish to'g'risidagi rasmiy statistik ma'lumotlar, shuningdek, bojxona statistikasida hisobga olinmaydigan ayrim tovarlarning eksport va import hajmlari bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risidagi ko'rsatkichlar, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birliklari kesimida taqsimlanmaydi.

Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo statistikasini shakllantirish, analitik materiallarni tayyorlash, turli davlatlar-savdo hamkorlar bilan respublika savdo ma'lumotlarini taqqoslama tahlilini o'tkazish uchun mo'ljallangan.

18. Mazkur Uslubiy qo'llanmani ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan ma'lumotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
3. To'lov balansi bo'yicha qo'llanma. 6 nashr/XVF 2009- yil.
4. Xalqaro tovarlar savdosi statistikasi: tushunchalar va ta'riflar. BMT/2010- yil. Nyu-York, 2011- yil.
5. "O'zbekiston Respublikasi davlat va bojxona tashqi savdo statistikasi ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash uslubiy qo'llanmasi to'g'risidagi Nizom" №1717 20.09.2007- yil.
6. "O'zbekiston Respublikasining Boj tarifi to'g'risida"gi qonuni.
7. "Tashqi savdo statistikasi ma'lumotlari va to'lov balansi ma'lumotlarining muvofiqligi to'g'risidagi uslubiy tavsiyalar" MDH statistika qo'mitasi 2013- yil.

Tovarlar tashqi savdo statistikasi
hisobini tashkil etish uslubiy
qo'llanmasiga ilova

Tashqi savdo statistikasini shakllantirish chizmasi

